

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/2025.27.12.FM/T.09.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI**

BOYNAZAROV ILHOM RUSTAM O'G'LI

**CsFAMA ASOSIDAGI PEROVSKIT QUYOSH ELEMENTLARI OPTIK,
FOTOVOLTAIK XUSUSIYATLARI HAMDA BARQARORLIGIGA CPTU
VA TCEP PASSIVLOVCHI MODDALARINING TA'SIRI**

01.04.05 – Optika

**fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Boynazarov Ilhom Rustam o'g'li

CsFAMA asosidagi perovskit quyosh elementlari optik, fotovoltaik xususiyatlari
hamda barqarorligiga CPTU va TCEP passivlovchi moddalarining ta'siri.....3

Бойназаров Илхом Рустам угли

Влияние пассивирующих материалов CPTU и TCEP на оптические,
фотоэлектрические свойства и стабильность перовскитных солнечных
элементов на основе CsFAMA.....22

Boynazarov Ilhom Rystam ugli

Effect of CPTU and TCEP passivating materials on the optical, photovoltaic
properties and stability of CsFAMA-based perovskite solar cells.....43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....47

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/2025.27.12.FM/T.09.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI**

BOYNAZAROV ILHOM RUSTAM O'G'LI

**CSFAMA ASOSIDAGI PEROVSKIT QUYOSH ELEMENTLARI OPTIK,
FOTOVOLTAIK XUSUSIYATLARI HAMDA BARQARORLIGIGA CPTU
VA TCEP PASSIVLOVCHI MODDALARINING TA'SIRI**

01.04.05 – Optika

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PHD/FM1369 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zR FA U.A.Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.iplt.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Quvondiqov Vahobjon Ortiqovich fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	Rahmatullayev Ilyos Arzimurodovich fizika-matematika fanlari doktori, professor Urolov Shamsiddin Zayniddinovich fizika-matematika fanlari falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12.FM/T.09.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "17" fevral soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent sh., Do'rmon yo'li ko'chasi 33-uy. Tel./Faks: (+99871) 262-32-54, e-mail: info@iplt.uz. Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 26/1 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent sh., Do'rmon yo'li ko'chasi 33-uy. Tel./Faks: (+99871) 262-31-69.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "5" fevral kuni tarqatildi.
(2026 yil "5" fevral dagi № 26/1 raqamli reestr bayonnomasi).



X.B. Ashurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor

I.D. Yadgarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, f-m.f.d., professor

U.K. Maxmanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f-m.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va tadqiqotlarning zaruriyati. So'nggi yillarda perovskit quyosh elementlari (PQE) fotovoltaika sohasida inqilobiy texnologiya sifatida namoyon bo'ldi. Tarkibiy muhandislik va qurilma arxitekturasidagi so'nggi yutuqlar natijasida bu elementlar 27% gacha samaradorlikka erishdi. Ammo PQE larning nurlanish, kislorod, namlik va issiqlik ta'sirida tez degradatsiyaga uchrashi ularning sanoat miqyosida qo'llanilishini cheklab kelmoqda. Shu sababli tadqiqotchilar bu muammolarni yumshatish uchun bir qator texnologiyaviy yondashuvlarni ishlab chiqdilar.

Hozirda dunyoda tadqiqotchilarning yangicha yondashuvlari hamda inkapsulyasiya texnologiyalari yordamida PQE ning barqarorligi 9000 soatdan o'ttirilgan. Lekin transport qatlam sifatida metall oksidlarini qo'llanilishi natijasida ulardagi kislorodning ajralib chiqishi hamda migratsiyasi perovskit barqarorligini cheklab kelmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham perovskit quyosh elementlarining fundamental nazariyasi, ularning samaradorligi hamda barqarorligini oshirish uchun katta hajmdagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, CsFAMA asosidagi PQE samaradorligi 23% ga, barqarorligi esa 3250 soatgacha yetkazilgan. Lekin uzoq muddat barqaror hamda yuqori samaradorlikka ega arzon perovskit quyosh elementlarini yaratish dolzarb masala bo'lib turibdi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422 sonli "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4422 sonli, 2017 yil 26 maydagi "2017 - 2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PQ-3012 sonli qarorlari, 2019 yil 21 maydagi O'zbekiston Respublikasining 539-sonli "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning: III - "Energetika, energoresurs tejamkorligi, transport, mashina va elektron asbobsozligi rivojlanishi" va II - "Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik" kabi ustuvor yo'nalishlariga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Planar strukturali PQE sohasidagi tadqiqotlar Koreyalik Park N.G. va Angliyalik G. Snait tomonidan ilk bor 2012 yilda boshlanganiga qaramasdan, qisqa vaqt ichida PQE samaradorligi 27% ga etdi. Oxirgi yillarda mazkur sohada dunyo miqyosida juda ko'plab salmoqli ilmiy va

amaliy natijalarga erishildi. 2013-2014 yillarda perovskitlarning degradatsiyasi sabablari chuqur tadqiq qilina boshlandi. Olimlar, ayniqsa, yo'qotilgan atomlar (Pb^{2+} vakansiyalari), ortiqcha yod ionlari yoki organik kationlarning (MA) noto'g'ri taqsimlanishi kabi defektlarning rekombinatsiyani kuchaytirishini ko'rsatdi. 2014 yili Oksford universitetining Snayt (Snaith) guruhi perovskit qatlamlarga xlor (Cl^-) qo'shilmalarini kiritganda samaradorlik 15% dan 20% gacha ko'tarilishini e'lon qildi. Cl^- ionlari Pb^{2+} vakansiyalarini to'ldirib, kristall panjarasini barqarorlashtirdi. Bu defekt passivatsiyasining yorqin misoli bo'ldi. SHu yili, Lyuis kislotalari (masalan, TiCl_4) va Lyuis asoslari (piridin) defektlarni passivatsiya qilishda samarali ekanligi aniklandi. 2015-yildan boshlab, perovskitlar uchun o'ziga xos passivatsiya usullari keng tarqala boshladi. Tadqiqotchilar asosan organik va noorganik passivatorlarni o'z ichiga oluvchi ikki ustuvor yo'nalish sifatida ajratishdi. 2015 yili Seok (Janubiy Koreya) guruhi CsBr va RbCl qo'shilmalarini kiritganda perovskitlarning barqarorligi va samaradorligi (20% dan ziyodga) oshirildi. Bu ionlar donachalar chegaralarida to'planib, defektlarni passivlaydi va elektron o'tkazuvchanlikni yaxshilash imkonini berdi. 2016 yili Grätzel guruhi feniletilammoniy yodid (PEAI) ni passivator sifatida ishlatishi natijasida u perovskit yuzasidagi Pb^{2+} vakansiyalariga bog'lanib, zaryadlar rekombinatsiyasini kamaytirdi va natijada 22% samaradorlikka erishildi. 2017 yildan boshlab, nanotexnologiyalar perovskitlardagi defektlarni boshqarishda muxim rol o'ynay boshladi. 2D/3D geterostrukturalarni yaratish (masalan, $\text{BA}_2\text{MA}_{n-1}\text{Pb}_n\text{I}_{3n+1}$) defektlarni cheklash imkonini bergan. 2D qatlam 3D perovskitni suv va kisloroddan himoya qilish birgalikda, donachalar chegaralaridagi defektlarni passivatsiya qilgan. 2018 yili Massachusetts texnologiyalari instituti tadqiqotchilari grafen oksidini passivator sifatida qo'llab barqarorlikni 1000 soatgacha oshirdilar.

Mazkur sohada O'zbekistonda ham O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida prof. E. Zaxidov jamoasi, Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida prof. N. Ashurov rahbarligidagi guruh, Samarqand davlat universitetida A. Zaxidov, E. Kurtalievlarining boshchiligidagi jamoalar bir qator tadqiqotlar olib borib muhim ilmiy-amaliy natijalarga erishishgan. Xususan, N. Ashurov organik perovskitlar, A. Saparbaev noorganik perovskitlarni samaradorligini oshirish, I. Tajibayev perovskit quyosh elementlari faol qatlam strukturaviy defektlarining ularning optik va fotovoltaik xususiyatlariga ta'siri, L. Nurimbetova CsPbI_3 va CsPbIBr_2 perovskitlarini barqarorligini oshirish yuzasidan tadqiqotlar olib borgan.

2020 yildan boshlab bugungi kungacha tadqiqotchilar real ekspluatatsion sharoitlar ta'sirida PQE degradatsiyasi mexanizmlarini o'rganish va bartaraf etish yuzasidan tadqiqotlar olib bormoqdalar. Bundan tashqari, sanoat miqyosida ishlab chiqarish uchun oson va masshtablashtirish imkoniyatlariga ega texnologiyalarni rivojlantirish ustida ham tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo bir necha funksional guruhga ega va perovskitda uchrovchi defektlarni passivatsiya qilish qobiyatiga ega moddalar qo'llangan holda va bir vaqtda bir necha texnologiyani qo'llab perovskit barqarorligini oshirish va uning optik, strukturaviy, fotovoltaik va barqarorlik parametrlarini korrelyasion o'rganish yuzasidan tizimli tadqiqotlar

mavjud emas. Shu sababli mazkur muammolarni bartaraf etish bo'yicha chuqur tadqiqotlar o'tkazish talab etiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida amalga oshirilayotgan FL-9024093524 sonli fundamental loyihasi, hamda davlat dasturi bo'yicha 2021-2025 yillarda olib borilayotgan "Yorug'lik energiyasini qayta o'zgartiruvchi tabiiy va sun'iy tizimlardagi fotomajburiy zaryadlar tashilish jarayonlarini o'rganish" mavzusidagi fundamental tadqiqot ishlari, Shimoli-g'arbiy politexnika universiteti va I. Karimov nomidagi TDTU bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan AL-8724053061 sonli O'zbekiston-Xitoy hamkorlikdagi (2025-2026 yy) loyihasi, Nanjing Tech universiteti va O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan AL-8724053065 sonli O'zbekiston-Xitoy hamkorlikdagi (2025-2026 yy) loyihasi doirasida amalga oshirildi.

Dissertatsiya ishining maqsadi: [4-(carbamoithioylamino)phenyl]thiourea (CPTU) bilan hajmiy passivatsiya hamda Tris(2-carboxyethyl)phosphine hydrochloride (TCEP) bilan interfeys injeneriyasi yordamida CsFAMA perovskit quyosh elementlari samaradorligini hamda uzoq muddatli barqarorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

CsFAMA perovskit faol qatlam tarkibiga CPTU funksional molekulasini kiritish orqali strukturadagi defektlarni passivatsiya qilaolish mexanizmlarini aniqlash;

perovskit samaradorligi va barqarorligiga salbiy ta'sir qiluvchi I_2/I_3^- holatlari, yodning dissosiatitsiyasi hamda superoksid reaksiya kanallarini CPTU yordamida bloklash mexanizmini optik usullar yordamida tadqiq qilish;

CPTU funksional molekulasini yordamida hajmiy passivatsiya qilish strategiyasini qo'llab CsFAMA asosli PQE samaradorligi va barqarorligini oshirish;

optik usullar yordamida TCEP ning nikel oksidi (NiO_x) va [4-(3,6-dimethyl-9H-carbazol-9yl)butyl]phosphonic acid (Me-4PACz) o'rtasida paydo bo'luvchi bog'lanishlarni aniqlash hamda interfeysida hosil bo'luvchi defektlarini passivatsiyalash mexanizmlarini tadqiq qilish;

TCEP bilan modifikatsiyalash yordamida perovskit - NiO_x interfeysida zaryadlarning eksraksiyasini optik usullar orqali baholash;

TCEP yordamida NiO_x sirtidagi defekt holatlarini reduksiyalash hamda NiO_x /TCEP/Me-4PACz samarali strukturasi ishlab chiqish orqali kislorodning perovskitga zararli ta'sirini kamaytirish hisobiga PQE barqarorligini oshirish.

Tadqiqot obyekti CsFAMA perovskit faol qatlamlari, NiO_x va TCEP bilan modifikatsiyalangan NiO_x transport qatlamlari, CPTU molekulasini hamda u bilan passivatsiyalangan perovskit faol qatlami hamda ular asosidagi quyosh elementlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini PQE larining fotoelektrik va optik xususiyatlari, tuzoq holatlar dinamikasi, CsFAMA perovskiti optik va fotoelektrik xususiyatlari, CPTU molekulasi bilan hajmiy passivatsiyalangan CsFAMA perovskitining fotoelektrik xossalari va barqarorligi, shuningdek ushbu perovskit asosida tayyorlangan PQE lar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. PQE larini tayyorlashda spin-coating, antierituvchi, sirt va struktura modifikatsiyasi hamda termik ishlov berish usullari qo'llanilgan. Materiallarning kristall tuzilishi va morfologiyasini tahlil qilish uchun XRD, SEM, AFM usullaridan foydalanilgan. Optik va elektron xususiyatlar UV-Vis yutilish, in situ UV-Vis yutilish, statsionar fotolyuminessensiya, TRPL, Raman, IQ-Furye, UPS hamda XPS spektroskopiyalari yordamida tadqiq qilindi. Qurilmalarning elektr-fotovoltaiik parametrlarini baholashda $J-V$ xarakteristikasi, EQE, SCLC, elektrokimyoviy impedans spektroskopiyasi, Mott-Shotki tahlillari ishlatildi. Bu orqali samaradorlik, gisterezis indeksi, defektlar zichligi va energetik holatlar aniqlandi. Barqarorlik sinovlari halqaro standart usullar orqali o'tkazilib, qurilmalarning termik va ekspluatasion barqarorligi baholandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi natijalardan iborat:

ilk bor UV-Vis yutilish spektrlari tahlilidan I_3^- ning 288 nm va 352 nm, I_2 ning 503 nm pik o'zgarishi dinamikasidan CPTU moddasining yodid oksidlanish reaksiyalarini bostirishi, ya'ni yodning I_2/I_3^- holatlari CPTU tomonidan reduksiyalanishi aniqlandi.

CsFAMA fotolyuminessensiya spektri piki 787 nm dan CPTU qo'shilgandan so'ng 783 nm gacha 4 nm "ko'k siljishi" hamda intensivligini 3 martadan ko'proqqa ortishi orqali perovskit dona chegaralaridagi sayoz galogenid vakansiyalari/antisayt nuqsonlari kamayganini va lokal ta'sirlar zaiflashganini ko'rsatib berildi.

birinchi marta CPTU molekulasi CsFAMA perovskitlarda yod superoksidlanish reaksiyalarini bostiruvchi va defektlarni passivatsiya qiluvchi modifikator sifatida qo'llanildi, hamda CsFAMA perovskitini hajmiy passivatsiya qilish yordamida qurilmaning EO'S 20.74% dan 22.97% gacha oshirildi, ekspluatatsion barqarorligi esa 1000 soatda 84% saqlanishiga erishildi.

FTIR spektrlaridagi TCEP ning C=O guruh piki 1725 cm^{-1} dan 1709 cm^{-1} ga qizil siljishi, Me-4PACz dagi P-OH guruh tebranishi $\sim 940\text{ cm}^{-1}$ dan 929 cm^{-1} ga siljishi orqali TCEP NiO_x defektlarini passivlashtirishi hamda Me-4PACz o'zaro Van-der Vals bog'lanishi yordamida interfeysni yaxshilashi mexanizmlari ochib berildi.

birinchi marta Raman spektrlarida $\sim 930\text{ cm}^{-1}$ atrofida $\text{P}=\text{O}\cdots\text{Ni}$ koordinasion piki paydo bo'lganligi orqali TCEPO ning NiO_x yuzasiga kimyoviy integratsiyasi eksperimental jihatdan ko'rsatib berildi.

statsionar fotolyuminessensiya va TRPL tahlillari asosida TCEP modifikatsiyasidan so'ng fotolyuminessensiya intensivligi pasayishi va zaryad tashuvchilarning yashash vaqti 395 ns dan 306 ns gacha qisqarishi kuzatildi. Natijada perovskitdan NiO_x ga zaryadlarning eksraktsiyasi 1.3 marta orttirildi.

birinchi marta TCEP molekulasini $\text{NiO}_x/\text{Me-4PACz}$ interfeysini modifikatsiya qiluvchi reduktant va passivator sifatida qo'llanildi, hamda $\text{NiO}_x/\text{TCEP}/\text{Me-4PACz}/\text{CsFAMA}$ perovskit strukturasida 26.34% samaradorlikka va 9369 soatlik (T_{80}) ekspluatatsion barqarorlikka erishildi. Bu amaldagi CsFAMA PQE lari uchun rekord ko'rsatkich hisoblanadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

CPTU molekulasini bilan perovskit faol qatlamini modifikatsiya qilish orqali yodning oksidlanish reaksiyalarini samarali bostirish, defekt holatlarini passivatsiya qilish va nurlanishsiz rekombinatsiyani keskin kamaytirishga erishildi. Natijada qurilmaning EO'S 20.74% dan 22.97% gacha oshdi, gisterezis indeksi 6.02% dan 2.18% gacha pasaydi va ishlash barqarorligi 1000 soatda 84% EO'S saqlanishi bilan ta'minlandi.

TCEP molekulasini yordamida $\text{NiO}_x/\text{Me-4PACz}$ interfeysini modifikatsiya qilish interfeys defektlarini passivatsiyalab, zaryad tashuvchilarning ekstraktsiyasini yaxshiladi. Optimal 0.3 mg/mL TCEP konsentratsiyasida qurilma samaradorligi 26.40% ga yetdi, gisterezis 2.09% gacha pasaydi va barqaror ish rejimida uzoq muddat 9370 soat davomida quvvat saqlanishi ta'minlandi. Bu natijalar PQE ni sanoat miqyosida qo'llash uchun yangi qadam bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bir nechta ilmiy asoslangan omillar bilan ta'minlangan bo'lib, ular quyidagicha izohlanadi: Har bir turdagi perovskit quyosh elementlari uchun 20 ta mustaqil qurilma tayyorlanib, ularning parametrlari statistik tahlil qilindi. Bu ma'lumotlar natijalarning tasodifiy emasligini, balki qayta ishlab chiqarishda ham takrorlanuvchan va barqaror ekanligini ko'rsatdi. Natijalarni tasdiqlash uchun bir nechta mustaqil zamonaviy tahlil usullari qo'llanildi. Barcha tadqiqotlar xalqaro standartlar asosida olib borildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ilmiy jihatdan asoslangan holda CPTU orqali optik passivatsiya mexanizmi - Pb-S va $\text{N-H}\cdots\text{I}$ bog'lanishlar orqali nurlanishsiz rekombinatsiya kanallarini to'suvchi va energiya yo'qotishni kamaytiruvchi tizim modellari taklif etildi. NiO_x interfeysining TCEP orqali reduksiya mexanizmi, defekt passivatsiya, va energetik sathlarning moslanish modeli tavsiflandi hamda perovskit–metall oksid interfeyslarini injenerlash uchun yangi konsepsiya ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyatini esa CPTU molekulasini bilan perovskit faol qatlamini modifikatsiya qilish orqali yodning oksidlanish reaksiyalarini samarali bostirish orqali PQE larning ishlash barqarorligi 1000 soatda 84% EO'S saqlanishi hamda TCEP bilan NiO_x reduksiyalash natijasida PQE barqarorligini 9370 soatgacha oshirilganligi tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi.

CsFAMA asosidagi perovskit quyosh elementlari optik, fotovoltaiik xususiyatlari hamda barqarorligiga CPTU va TCEP passivlovchi moddalarining ta'siri qiyosiy taxlillari bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

perovskit quyosh elementlarining standart bir quyosh nurlanishi (AM 1.5 G) ostida eng yuqori va o'rtacha fotovoltaiik parametrlari aniqlash hamda statistik

baholash metodlaridan; perovskit quyosh elementlarining fotovoltaik parametrlari orqali ularning uzoq muddatli ekspluatatsion barqarorligini test qilish metodlaridan I.A.Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universitetida f.-m.f.d., prof. Ayupov Q.S. rahbarligida 2021-2025 yillarda olib borilgan № Ф-ОТ-2021-497 “Fotoelektrik issiqlik batareyalari asosidagi quyosh kogeneratsion qurilmalarini yaratishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” nomli fundamental loyiha ilmiy-texnikaviy vazifalarini bajarishda foydalanilgan. Ilmiy natijalardan fotoelektrik stansiyalarning energetik parametrlarini hisoblash, ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining sutkalik va oylik dinamikasini hisoblashning matematik modelini tuzishda samarali foydalanilgan.

TCEP moddasidan foydalanilgan holda kovak teshik tashuvchi qatlamdagi nuqsonlarni passivatsiya qilish usuli Xitoy Xalq Respublikasining Nanjing Texnologiya Universiteti (Kelajak texnologiyalari maktabi, Moslashuvchan elektronika yo’nalishi) da professor Sunsun Li rahbarligida 2023–2025 yillar mobaynida amalga oshirilgan BE2022023 raqamli loyiha doirasida organik quyosh elementlarini tayyorlashda qo’llanilgan. Ushbu yondashuvni amalda tatbiq etish qurilma samaradorligini 2% ga oshirish va 100 soatgacha ishlash barqarorligini yaxshilash imkonini bergan.

CsFAMA asosidagi perovskit quyosh elementlari optik, fotovoltaik xususiyatlari hamda barqarorligiga TCEP passivlovchi moddasining ta’siriga oid ilmiy natijalardan xorijiy jurnallardagi maqolalarda (*Journal of Alloys and Compounds*. 2025. V.1049. p.185407, IF=6.3; *ACS Photonics*. 2025, (ASAP) IF=6.7; *ACS Applied Materials & Interfaces*, V.17(42), p.58973-58982. IF=8.3) NiO_x/perovskit interfeysini modifikatsiya qilish, zaryadlar tashilish jarayonini yaxshilash, perovskit qurilma barqarorligi va EO’S ni oshirish strategiyasi sifatida foydalanilgan. Ilmiy natijalardan foydalanish PQE barqarorligi va samaradorligini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy natijalari 5 ta, shu jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida ma’ruza va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya tadqiqotlari davomida olingan natijalar asosida 9 ta ilmiy ish chop etilgan. O’zR OAK tomonidan fizika-matematika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy nufuzli ilmiy jurnallardagi maqolalar, 3 tasi mahalliy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar. Shuningdek, 4 ta ma’ruza materiallari xalqaro va respublika konferensiya to’plamlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to’rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati, hamda 43 ta rasm va 7 ta jadvaldan iborat bo’lib, dissertatsiya hajmi 130 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYNING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va tadqiqotlarning zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy guruhlar va tadqiqotchilarning ilmiy ishlari sharhi, mavzuning o'rganilganlik darajasi tag'lil qilingan. Mavjud va yechilmagan muammolarga asoslangan holda tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti va tadqiqotlarda foydalanilgan usullar shakllantirilgan. Olingan natijalarning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati hamda amaliyotga joriy qilinganligi batafsil yoritilgan. Dissertatsiya ishi doirasida chop etilgan ilmiy ishlar, natijalarning approbatsiyasi, ishning tuzilishi va dissertatsiya hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

“CsFAMA perovskitini passivatsiya qilish: samaradorlik va barqarorlikni oshirish strategiyalarining kompleks tahlili” nomli birinchi bobda perovskit strukturasi, turli tarkibiy qismlari, ko'p tadqiq qilingan perovskit materiallar va ularning parametrlari haqidagi tadqiqotlar tahlil qilingan. PQE faol qatlamda uchrovchi defektlarning turlari, ularning qurilmaning parametrlariga ta'siri va ahamiyati to'risidagi adabiyot ma'lumotlari keltirilgan. Defektlarning hosil bo'lishi mexanizmlari, ularning migratsiyasi va ular ta'siridagi degradatsiya mexanizmlari to'liq tushuntirib berilgan. Bundan tashqari har hil turdagi defektlarni passivatsiya qilishning zamonaviy usullari o'rganilgan. Xorijiy tadqiqotchilarning aynan dissertatsiya ob'ektlari misolida turli passivatsion materiallar va texnologiyalarni qo'llash natijasida olingan natijalari solishtirma tahlil qilingan. Adabiyotlarda foydalanilgan moddalar va texnologiyalarning ustunlik va kamchiliklari aniqlangan va dissertatsiya maqsadiga mos holda vazifalarning shakllantirilib va tadqiqot yo'nalishlari aniqlab olingan.


Dissertatsiyaning nomli ikkinchi bobida **“CsFAMA perovskiti yod superoksidlanishi va defektlarni CPTU funksional moddasi yordamida bartaraf etishning optik va fotovoltaik tadqiqi”** CsFAMA asosidagi PQE larning o'z-o'zidan shakllanuvchi molekulyar qatlam (SAM)ni qo'llash va perovskit kristallanish jarayonini optimallashtirish maqsadida CPTU molekulasi qo'llash orqali faza noustuvorligini kamaytirish, ishlash barqarorligi oshirish va degradatsiya mexanizmlari optik nuqtai nazardan tadqiq etishga doir natijalari keltirilgan.

CPTU modifikator qo'shimchasining haqiqatan ham CsFAMA perovskitining kristal tuzilishi va morfologiyasiga ta'sirini tasdiqlash uchun FTIR, Uv-Vis yutilish, SEM, EQE, tDOS tadqiqotlari o'tkazilgan. Tajribalar davomida tadqiq etilgan PQE 1-rasmda keltirilgan sxema asosida tayyorlandi.



1-rasm. ITO/NiO_x/Me-4PACz/CsFAMA+CPTU/PCBM+C₆₀/BCP/Ag perovskit quyosh elementlarining sxematik tasviri.


CPTU molekulasining C=S va –NH₂ guruhlarini orqali Pb²⁺ va I[–] nuqsonlari bilan kimyoviy bog'lanishi (C=S⋯Pb va N–H⋯I) yuqori aniqlikdagi FTIR va Uv-vis yutilish tahlillari orqali ilmiy jihatdan isbotlandi (2-rasm). Bu interfeysdagi nurlanishsiz rekombinatsiyani samarali passivatsiya qilish mexanizmi bo'la olishini anglatadi.



2-rasm: a) CPTU molekulasining kimyoviy tuzilishi. b) CPTU molekulasining zaryad taqsimoti. c) CPTU va CPTU+PbI₂ plyonkalarining FTIR spektrlari. d) dixlormetandagi CPTU va I₂ moddalarini (alohida va aralash holda) ning UV-Vis yutilish spektrlari.

CPTU moddasining perovskit barqarorligiga optik nuqtai nazardan ta'sirini baholash uchun perovskit plyonkalaridagi Uv-Vis yutilish va doimiy fotolyuminessensiya (steady-state PL) spektrlari hamda ularning degradatsiya jarayonidagi evolyutsiyasi tadqiq etildi (3-rasm). Nazorat plyonkasida yutilish spektri 5 soatlik ta'sirdan keyingina sezilarli o'zgarishga uchrashni boshlaydi.


Dastlab, perovskit plyonka o'zining asosiy yutilish to'liq uzunligi (≈ 552 nm) da kiruvchi nurning 99.465% qismini yutadi. Ammo 100 soatdan so'ng bu qiymat 97.682% gacha pasaygan. Bu esa perovskit materialining tarkibiy kimyoviy o'zgarishi va degradatsiyaga uchraganligini anglatadi. Bunday o'zgarishlar asosan superoksidlanish va yodid oksidlanishi reaksiyalari natijasida, ya'ni nurlanish va kislorod ta'sirida yuz beradi. CPTU bilan passivatsiya qilingan perovskit plyonkasining (3b-rasm) boshlang'ich yutilish qiymati 99.528% bo'lib, 100 soat degradatsiyadan keyin ham u 99.187% darajada saqlanib qoladi. Demak, yutilish nuqtai nazaridan degradatsiya ta'siri nazorat plyonkasida faqat 5 soat ichida kuzatilsa, CPTU bilan passivatsiya qilingan plyonkada bu o'zgarish faqat 100 soatdan keyin namoyon bo'ladi.



3-rasm: Tabiiy muhit sharoitida va AM 1.5 G nurlanishi ostida degradatsiya jarayoni vaqtida a) nazorat hamda b) CPTU bilan passivatsiya qilingan perovskit plyonkalari uchun yutilish spektrlarining evolyusiyasi. c) va d) Xuddi shu sharoitlarda nazorat va CPTU bilan passivatsiya qilingan perovskit plyonkalari uchun doimiy fotolyuminessensiya spektrlarining evolyutsiyasi.

CPTU modifikatsiyasi natijasida perovskit materialining optik yutilish ko'effitsiyenti 15% gacha oshishi, fotolyuminessensiya intensivligi 3 barobar ortishi, hamda zaryad tashuvchilar yashash vaqtining 384 ns dan 829 ns gacha uzayishi ilmiy jihatdan aniq miqdorlarda isbotlandi.

CPTU moddasining kiritilishi qurilmaning fotovoltaik parametrlariga ta'sirini baholash uchun volt-ampere ($J-V$) xarakteristikalarini tadqiq etildi (4-rasm).




4-rasm: a) Turli konsentratsiyalarda CPTU qoʻshilgan va passivatsiya qilingan PQE hamda nazorat qurilmalarining J – V xarakteristikalarini. b) 0.3 mg/ml CPTU bilan passivatsiya qilingan PQE qurilmalari uchun oldingi va orqa skan boʻyicha J – V chiziqlari, fotovoltaiik parametrlari hamda hisoblangan gisterezis koeffitsientlari.

4-rasmda keltirilganidek, 0.3 mg/ml CPTU miqdorida tayyorlangan perovskit qurilmasi eng yuqori $V_{oc} = 1.165$ V va $J_{sc} = 22.99$ mA/cm^2 qiymatlariga erishgan. Bu esa perovskit strukturasi kristalllashish darajasi yaxshilanganini, defektlar zichligi kamayganini va zaryad tashuvchilarning yashash vaqim oshganini aniq tasdiqlaydi. Olingan eksperimental maʼlumotlar asosida perovskit qurilmalari uchun gisterezis koeffitsiyenti (HF) ilmiy manbalarda keltirilgan formula yordamida hisoblab chiqildi. Hisoblash natijalari shuni koʻrsatdiki, CPTU moddasini qoʻshish orqali gisterezis koeffitsiyenti 6.02% dan 2.18% gacha pasaydi. Bu natija perovskit strukturasi ichidagi defektlarning samarali passivatsiya qilinganligini anglatadi.

Inkapsulyasiya qilingan qurilmaning ekspluatatsion barqarorligini tekshirish uchun 45 °C temperaturada 1 quyosh yorugʻligi taʼsirida UB – filtrlarsiz havo atmosferasida sinovlar olib borildi. Nazorat qurilmalari 1000 soatlik sinovlardan soʻng dastlabki samaradorligini 69%ni saqlab qolgan boʻlsa, CPTU bilan modifikatsiyalangan perovskit quyosh elementlari dastlabki samaradorlikni 84%ni saqlab qoladi.

Dissertatsiyaning **“NiO_x va oʻz-oʻzidan shakllanuvchi molekular interfeysini TCEP molekulasi bilan modifikatsiyalashning transport qatlam va CsFAMA perovskiti morfologik va optik parametrlariga taʼsiri”** nomli uchinchi bobida TCEP reduktand moddasi yordamida yordamida kovak tashuvchi qatlam va perovskite faol qatlam interfeysini passivatsiya qilishga doir tadqiqot natijalari keltirilgan.


NiO_x va TCEP molekulasi oʻzaro taʼsirlashish mexanizmlarini aniqlash uchun FTIR, Uv-Vis yutilish, SEM, AFM, XRD, DFT, EQE, Raman, XPS, ToF-SIMS, insitu Uv-Vis yutilish tadqiqotlari tadqiq etildi.



5-rasm: a) NiO_x va NiO_x/TCEP taglik ustidagi SAM qatlami qoplanish va b) kiritilgan reduktant molekula yordamida integratsiyalangan NiO_x -SAMs KTQ. Mos ravishda TCEP molekulasining NiO_x va Me-4PACz bilan ta'sirlashish reaksiyasining sxematik diagrammasi.

5-rasmda NiO_x yuzasidagi kimyoviy muhitni TCEP orqali qayta konfiguratsiyalash orqali elektron tuzilishni va SAM qatlamining molekulyar shakllanishini optimallashtirish mexanizmi keltirilgan. NiO_x yuzasi avval TCEP bilan ishlov beriladi. TCEP molekulasidagi fosfin va karboksil guruhlari NiO_x yuzasi bilan koordinasion ($\text{C}=\text{O}\cdots\text{Ni}$) va vodorodli ($\text{O}-\text{H}\cdots\text{O}-\text{Ni}$) bog'lar orqali mustahkam bog' hosil qiladi. Bu jarayon natijasida, Ni^{4+} markazlarining pasayishi va ularning Ni^{3+} holatiga reduksiyalanishi amalga oshadi. TCEP oksidlanganda TCEPO hosil bo'ladi va uning $-\text{COOH}$ guruhlari Me-4PACz molekulasidagi $-\text{PO}(\text{OH})_2$ guruhlari bilan degidratatsiya reaksiyasiga kirishib, $\text{P}-\text{O}-\text{C}$ fosfonat bog'lari hamda qo'shimcha vodorod bog'larini shakllantiradi. Chegaraviy defekt holatlari passivatsiyalanadi, NiO_x yuzasidagi ortiqcha oksidlovchi markazlarni yo'qotadi va zararli interfeys reaksiyalarini kamaytiradi. Bu esa SAMs qatlamlarining zichligi va barqarorligini sezilarli darajada oshiradi.

TCEP molekulasi va Me-4PACz hamda NiO_x bilan o'zaro ta'sir mexanizmlarini o'rganish maqsadida Furiye infraqizil spektroskopiyasi (FTIR) tahlillari o'tkazildi.




6-rasm. TCEP va NiO_x+TCEP plyonkalari FTIR spektrlari.

6a-rasmdan ko'rish mumkinki, sof Me-4PACz namunalarida 940 cm^{-1} atrofida fosfonat guruhiga mansub $\text{P}-\text{OH}$ xarakterli piki qayd etildi, bu esa $-\text{PO}(\text{OH})_2$ guruhlarning erkin holda mavjudligini tasdiqlaydi. TCEP molekulasida

esa 1727 cm^{-1} da karboksil guruhining asosiy C=O piki kuzatildi, bu uning reaktivligini ko'rsatadi. Me-4PACz va TCEP birgalikda tahlil qilinganda, C=O piki 1727 dan 1709 cm^{-1} ga, P–OH piki 940 dan 929 cm^{-1} ga siljidi. Bu o'zgarish degidratatsiya reaksiyasi tufayli yangi P–O–C ester bog'larining hosil bo'lganidan dalolat beradi.

TCEP molekulasida karboksil guruhlariga tegishli O–H (2504 cm^{-1}) va C=O (1725 cm^{-1}) piklari kuzatilgan (6b-rasm). NiO_x yuzasiga TCEP adsorbsiya qilinganda, C=O piki $1725 \rightarrow 1707\text{ cm}^{-1}$ ga siljidi, O–H piki intensivligi pasaydi, shuningdek 1180 cm^{-1} da yangi P=O piki paydo bo'ldi. Bu holat TCEPning oksidlanib TCEPO ga aylangani va NiO_x yuzasi bilan ham koordinasion, ham kovalent bog'lar hosil qilganini ko'rsatadi. Ushbu natijalar nazariy hisoblashlar, yutilish, XRD, XPS spektrlari natijalariga mos keladi va ularni tasdiqlaydi.




7-rasm. Sof va 100 μL DMF bilan ishlovdan keyin (a) NiO_x/Me-4PACz va (b) NiO_x/TCEP/Me-4PACz interfeyslarining Uv-Vis yutilish spektrlari. (c) Me-4PACz ning DMF dagi $5 \times 10^{-5}\text{ M}$ eritmasi yutilish spektri.

Me-4PACz molekulasini barqarorligini aniqlash maqsadida NiO_x/Me-4PACz va NiO_x/TCEP/Me-4PACz qoplamalari sof holatda va 100 μL DMF erituvchisi ta'sirida tahlil qilindi. Shuningdek, Me-4PACz molekulasini alohida holda ham tekshirildi (7-rasm).

NiO_x/TCEP/Me-4PACz sof holatidagi hamda 100 μL DMF bilan yuvilgandan keyingi spektrlari deyarli bir xil bo'lib, intensivlikda pasayish kuzatilmadi. Bu holat TCEP orqali interfeysda hosil bo'lgan P–O–C kimyoviy bog'lar SAM qatlamini mustahkamlab, erituvchi ta'siriga chidamli qilganini ko'rsatadi.


TCEPning NiO_x/Me-4PACz interfeysiga kiritilishi perovskit strukturasi kristallanish jarayoniga ta'sirini tadqiq qilish uchun in situ UV-Vis yutilish tadqiqotlari amalga oshirildi (8-rasm).



8-rasm: a) NiO_x va b) NiO_x/TCEP interfeys ustida o'stirilgan perovskit plyonkalarining in situ UV-Vis yutilish spektrlari

Natijalar tahlili TCEP ning $\text{NiO}_x/\text{Me-4PACz}$ interfeysiga kiritilishi perovskit kristallanish tezligini kamaytirishini ko'rsatdi. Bu esa katta hajmdagi sifatli plyonka olish imkonini beradi va turli hajmiy defktlar miqdorini kamaytirishga yordam beradi. Ushbu natijalar SEM, AFM tavsirlari tomonidan ham tasdiqlandi.

NiO_x/TCEP interfeysini perovskit morfologiyasiga ta'sirini baholash uchun ularning SEM tasvirlari o'rganildi.



9-rasm. NiO_x va NiO_x/TCEP tagliklar ustiga yotqizilgan perovskit faol qatlamlarining pastki yuzalarining SEM tasvirlari


Keltirilgan SEM tasvirlaridan ko'rinib turibdiki TCEP kiritilishi natijasida perovskit plyonka morfologik parametrlari yaxshilangan ya'ni yuzada donacha tuzilishi bir xil, yirik va donacha chegaralari aniq hamda barqaror taqsimlangan.

“ NiO_x va o'z-o'zidan shakllanuvchi molekular interfeysini TCEP molekulas bilan modifikatsiyalashning CsFAMA perovskiti asosidagi quyosh elementining fotovoltaik va barqarorlik parametrlariga ta'siri” nomli 4-bobda TCEP ning NiO_x yuzasiga adsorbsiyalanishining perovskit plyonka fotovoltaik va barqarorlik parametrlariga ta'siriga doir tadqiqot natijalari yoritilgan. TCEP funksional molekulasining perovskit quyosh elementlarining fotovoltaik parametrlariga ta'sirini o'rganish maqsadida ITO-shisha/ NiO_x/TCEP yoki TCEP

siz/Me-4PACz/CsFAMA/PEACl/PC₆₁BM+C60/BCP/Ag arxitekturali planar struktura tayyorlandi.

Tajriba natijalariga ko'ra, TCEP konsentratsiyasining ortishi bilan J_{SC} va V_{OC} yaxshilanib borgan, bu esa interfeysdagi defektlarning samarali passivatsiyalanishi va zaryad tashish yo'qotishlarining kamayishini ko'rsatadi. Ayniqsa 0,3 mg/mL TCEP qo'llanilganda qurilma fotovoltaik parametrlari J_{SC} , V_{OC} va FF eng yuqori qiymatlarga yetib, EO'S maksimal darajaga ko'tarilgan. Konsentratsiyaning bundan ortiqcha oshishi esa (0,5 mg/mL gacha) teskari ta'sir ko'rsatib, parametrlarning pasayishiga, ya'ni optimal qiymatdan og'ishishiga sabab bo'ladi.


Perovskit quyosh elementlarining sifati hamda zaryad tashuvchilarning inersiyaviy xususiyatlarini baholash maqsadida, nazorat va TCEP funksional molekulasini bilan modifikatsiya qilingan kovak tashuvchi qatlamga ega fotovoltaik qurilmalarning to'g'ri va teskari skanerlashdagi $J-V$ xarakteristikalari tahlil qilindi.



10-rasm. Nazorat (NiO_x) va TCEP bilan modifikatsiya qilingan (NiO_x/TCEP) perovskit quyosh elementlarining to'g'ri va teskari skanerlashdagi $J-V$ xarakteristikalari.

Natijalardan ko'rish mumkinki, TCEP bilan modifikatsiya qilingan qurilma ancha yuqori natijalarni namoyon etgan: $V_{OC} = 1.184-1.188$ V, $J_{SC} = 25.98-26.18$ mA·sm⁻², FF = 83.84–84.69%, va EO'S = 25.79–26.34%. Shu bilan birga, HF qiymati 4,14% dan 2.09% gacha pasaygan, ya'ni gisterezis ta'siri sezilarli darajada kamaygan.


Nazorat va TCEP bilan modifikatsiya qilingan KTQ ga ega CsFAMA perovskit qurilmalarida fazalar orasidagi zaryadlarni ajralishi, uzatilishi kinetikasi va qayta kombinatsiyalanish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish maqsadida stasionar fotoluminessensiya va TRPL spektrlari tadqiq etildi.



11-rasm. TCEP bilan modifikatsiya qilingan $\text{NiO}_x/\text{Me-4PACz}$ interfeyslari ustiga yotqizilgan CsFAMA perovskit plyonkalarining stasionar va kechikkan fotolyuminessensiya tahlili

11a-rasmda keltirilgan stasionar fotolyuminessensiya spektrlaridan ko'rinib turibdiki, $\text{NiO}_x/\text{TCEP}/\text{perovskit}$ namunasida fotolyuminessensiya intensivligi TCEP siz nazorat namunasiga nisbatan pastroq. Bu holat TCEP modifikatsiyasidan so'ng interfeysdagi zaryad tashish jarayoni samaraliroq kechayotganini ko'rsatadi. Kechikkan fotolyuminessensiya tahlillaridan aniqlanishicha, zaryad tashuvchilarning yashash vaqti 395 ns dan 306 ns gacha qisqargan. Bu natija KTQ/perovskit interfeysidagi defekt holatlari konsentratsiyasining kamayganini, hamda ular orqali kechadigan zaryadlarning nurlanishsiz rekombinatsiya jarayonlari samarali passivatsiyalanganini anglatadi.

Perovskitning degradatsiyalanish sabablaridan biri doimiy yorug'lik ta'siri va tashqi elektr yuklamasidir. Shuning uchun nazorat va TCEP bilan modifikatsiyalangan qurilmalarning germetizatsiya qilingan holdagi ishchi barqarorligini (MPP tracking) 55°C haroratda, havo muhitida, bir quyosh nurlanishi ostida 1000 soat davomida kuzatildi.



12-rasm. NiO_x va NiO_x/TCEP interfeyslariga ega perovskit qurilmalarining 55°C haroratda, havo muhitida va 1 quyosh yoritish sharoitida ekspluatasion barqarorligi sinovlari.

12-rasmda ko'rsatilganidek, NiO_x KTQ ga ega PQE 1000 soatdan so'ng 80,1% samaradorlikni saqlab qolgan bo'lsa, TCEP bilan modifikatsiya qilingan $\text{NiO}_x/\text{TCEP}/\text{KTQ}$ ga ega PQE 97,5% darajada barqarorlikni saqlab qolgan. Samaradorlikning vaqt bo'yicha chiziqli bog'lanishiga ko'ra, NiO_x qurilmasining T_{80} nazariy xizmat muddati ≈ 1457 soat, NiO_x/TCEP qurilmasiniki esa ≈ 9369 soat bo'lib, bu uning ancha barqaror ish sharoitini ta'minlashini ko'rsatadi.

Xulosada dissertatsiya ishining asosiy xulosalari bayon etilgan.

XULOSALAR

1. CPTU ning tiokarbamid guruhiga tegishli FTIR spektralaridagi 1271 cm^{-1} dagi xarakterli tebranish piki PbI_2 qo'shilgandan so'ng 1276 cm^{-1} gacha yuqori chastota tomonga siljidi, hamda bu CPTU molekulasi $\text{C}=\text{S}$ bog'ining Pb^{2+} ionlari bilan $\text{C}=\text{S} \cdots \text{Pb}$ koordinatsion, hamda 485 cm^{-1} dagi yangi tebranish polosi esa $\text{Pb}-\text{S}$ bog'lanishlari hosil bo'lganligini tasdiqlaydi. Ushbu hosil bo'lgan bog'lanishlar CPTU va PbI_2 o'rtasida o'zaro Van-der-Vaals ta'sir mavjudligini ko'rsatadi.
2. CPTU molekulasi I_2 va yodning ion shakli I_3^- bilan donor-akseptor ko'rinishida bo'g'lanib, uning oksidlanishini oldini olishi I_2 ning 503 nm dagi yutilish piki 1.7 marta kamayganligi, I_3^- ga xos 288 va 352 nm dagi piklar deyarli to'liq yo'qolganligi Uv-Vis yutilish spektrlari tahlillari orqali ko'satib berildi. Shu bilan bir qatorda CPTU ning xususiy yutilish piki esa 260 nm dan 264 nm gacha qizil siljishi bilan birga intensivligi 10 martadan ortiq oshganligi aniqlandi. Ushbu natijalar CPTU molekulasi yodning superoksidlanish reaksiyalarini cheklashini va fotokimyoviy degradatsiyani sezilarli darajada kamaytirishini isbotlaydi.
3. CsFAMA asosidagi PQE CPTU bilani modifikatsiyalanganda optik yutilish koeffitsienti 15% ga, fotoluminessensiya intensivligi esa 3 barobarga ortib, zaryad tashuvchilar yashash vaqti 384 ns dan 829 ns gacha uzayishi aniqlandi. Buning natijasida qurilma EO'S 20.74% dan 22.97% gacha oshishiga hamda PQE barqarorligining 1000 soat uzluksiz ishlashdan so'ng $T_{80} = 84\%$ gacha saqlanilishiga erishildi. Ushbu natijalar CPTU moddasining perovskit strukturasidagi defektlarni samarali passivatsiya qilganligini hamda struktura degradatsiyani sezilarli sekinlashtirganidan dalolat beradi.
4. FTIR spektrlari tahlili natijalarida TCEP ning NiO_x yuzasiga adsorbsiyasidan keyin $\text{C}=\text{O}$ karboksil pik $1725-1727 \text{ cm}^{-1}$ dan $1707-1709 \text{ cm}^{-1}$ ga qizil tomonga siljishi ko'rsatishi TCEP va NiO_x o'rtasida $\text{C}=\text{O} \cdots \text{Ni}$ koordinasion bog'lanish hosil qilinishini ko'rsatadi. Shuningdek, $\approx 1180 \text{ cm}^{-1}$ da yangi $\text{P}=\text{O}$ pikning namoyon bo'lishi TCEP ning oksidlanishi hamda $\text{Ni}-\text{O}/\text{P}=\text{O} \cdots \text{Ni}$ turdagi bog'lanishlar shakllanganligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari Me-4PACz ning $\text{P}-\text{OH}$ tebranish polosasining $\approx 11 \text{ cm}^{-1}$ ga, TCEP ning $\text{C}=\text{O}$ polosi esa 18 cm^{-1} ga siljishi degidratatsiya orqali $\text{P}-\text{O}-\text{C}$ ester/fosfonat bog'lari hosil bo'layotganini isbotlaydi.

5. In-situ UV–Vis spektrlari va SEM/AFM tahlillaridan aniqlandiki, TCEP kiritilishi natijasida perovskit kristallanish tezligining sekinlashishi hisobiga yirik donali, kam defektli plyonka hosil bo'lishi aniqlandi. Ushbu natijalar interfeysdagi defektlar samarali passivatsiya qilinganligini anglatadi.
6. XPS spektrlari tahlillariga ko'ra TCEP reduksiyasi tufayli yuqori valentli Ni^{4+} markazlari ulushi 26.9% dan 20.6% gacha kamayganligi, Ni^{3+} ulushi esa 35.4% dan 41.3% gacha ortganligi aniqlandi. Ushbu o'zgarishlar zararli oksidlovchi markazlarning qisqarganligi va optik defekt sathlarining ham kamayganligini, hamda interfeysdagi rekombinatsiya jarayonlarini samarali kamaytirganini anglatadi.
7. Fotolyuminessensiya va TRPL tahlillaridan TCEP modifikatsiyasidan so'ng fotolyuminessensiya intensivligi pasayishi va zaryad tashuvchilarning yashash vaqti 395 ns \rightarrow 306 ns gacha qisqarishi aniqlandi. Bu natija perovskitdan kovak tashuvchi qatlarga zaryadlarning tez va samarali ekstraksiyasini, ya'ni nurlanishsiz rekombinatsiya kanallarining pasayganini ko'rsatadi.
8. TCEP molekulasidagi fosfin va karboksil guruhlarini $\text{Ni}^{4+} \rightarrow \text{Ni}^{3+}$ reduksiyasini amalga oshirishi hisobiga, $\text{NiO}_x/\text{Me-4PACz}$ interfeysidagi defektlarini samarali passivatsiya qildi. Buning natijasida $\text{NiO}_x/\text{TCEP}/\text{Me-4PACz}/\text{CsFAMA}$ perovskit strukturasi 9369 soatlik (T_{80}) ishchi barqarorlikka erishildi, hamda bu amaldagi CsFAMA tizimlari uchun eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/2025.27.12.FM/T.09.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ИОННО-ПЛАЗМЕННЫХ И
ЛАЗЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

ИНСТИТУТ ИОНО-ПЛАЗМЕННЫХ И ЛАЗЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

БОЙНАЗАРОВ ИЛХОМ РУСТАМОВИЧ

**ВЛИЯНИЕ ПАССИВИРУЮЩИХ МАТЕРИАЛОВ СРТУ И ТСЕР НА
ОПТИЧЕСКИЕ, ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА И
СТАБИЛЬНОСТЬ ПЕРОВСКИТНЫХ СОЛНЕЧНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ
НА ОСНОВЕ CSFAMA**

01.04.05 – Оптика

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2025.3.PhD/FM1369.

Диссертация выполнена в Институте ионно-плазменных и лазерных технологий имени У.А.Арифова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.iplt.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Кувондилов Вахобжон Ортикович
доктор физико-математических наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Рахматуллаев Илёс Арзимуродович
доктор физико-математических наук, профессор

Уролов Шамсиддин Зайниддинович
доктор философии (PhD) по физике и математики, старший научный сотрудник

Ведущая организация:

Чирчикский Государственный Педагогический Университет

Защита диссертации состоится «17» февраля 2026 г. в 14:30 на заседании Научного совета DSc.05/2025.27.12.FM/T.09.01 по присуждению ученых степеней при Институте Ионно-плазменных и лазерных технологий по адресу: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, 33. Тел./Факс: (99871) 262-32-54, e-mail: info@iplt.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института Ионно-плазменных и лазерных технологий (зарегистрирована за № 26/1) по адресу: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули 33. Тел./факс: (99871) 262-32-54.

Автореферат диссертации разослан «5» февраля 2026 г.
(Реестр протокола рассылки № 26/1 от «5» февраля 2026 г.)



Х.Б.Ашуров
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

И.Д.Ядгаров
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

У.К.Махманов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор.

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В последние годы перовскитные солнечные элементы (ПСЭ) проявили себя как революционная технология в области фотовольтаики. Благодаря достижениям в области инженерии состава и архитектуры устройств, эффективность данных элементов достигла 27%. Однако быстрая деградация ПСЭ под воздействием светового излучения, кислорода, влаги и повышенной температуры остаётся серьёзным препятствием для их промышленного применения. В связи с этим исследователи разработали ряд технологических подходов, направленных на минимизацию указанных проблем.

В настоящее время в мире благодаря новым подходам и технологиям инкапсуляции достигнута долговременная стабильность ПСЭ — более 9000 часов. Тем не менее использование металлических оксидов в качестве транспортных слоёв приводит к выделению и миграции кислорода, что ограничивает стабильность перовскитных структур.

В Узбекистане также ведутся масштабные исследования, направленные на повышение эффективности и стабильности перовскитных солнечных элементов, а также на изучение их фундаментальных физических закономерностей. В частности, в CsFAMA-основанных ПСЭ достигнута эффективность до 23%, а стабильность - до 3250 часов. Однако создание недорогих, долговечных и высокоэффективных перовскитных солнечных элементов остаётся одной из наиболее актуальных научно-технических задач.

Данная диссертационная работа, в определенной мере способствует реализации задач, обозначенных в ряде нормативных документов Республики Узбекистан, включая Постановление Президента Республики Узбекистан № PQ-4422 от 22 августа 2019 года «О мерах по повышению энергоэффективности отраслей экономики и социальной сферы, внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников энергии», Постановление № PQ-3012 от 26 мая 2017 года «О программе мер по дальнейшему развитию возобновляемой энергетики, повышению энергоэффективности в отраслях экономики и социальной сфере на 2017–2021 годы», Закон Республики Узбекистан № 539 от 21 мая 2019 года «Об использовании возобновляемых источников энергии», а также Указ Президента Республики Узбекистан № RF-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы».

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики Узбекистан: III - «Энергетика, энергосбережение, транспорт, развитие машиностроения и электроники» и II - «Физика, астрономия, энергетика и машиностроение».

Степень изученности проблемы. Несмотря на то, что исследования в области перовскитных солнечных элементов (ПСЭ) с планарной структурой были впервые начаты в 2012 году корейским ученым Н.Г. Парком и

британским исследователем Г. Снейтом, их эффективность за короткий срок достигла 27%. В последние годы в этой сфере были достигнуты значительные научные и практические результаты.

В 2013–2014 годах началось углубленное изучение причин деградации перовскитов. Ученые установили, что дефекты, такие как вакансии свинца (Pb^{2+}), избыток ионов йода или неправильное распределение органических катионов (МА), усиливают рекомбинационные процессы. В 2014 году группа Снейта из Оксфордского университета объявила, что добавление хлорид-ионов (Cl^-) в перовскитные слои позволило повысить КПД с 15% до 20%. Хлорид-ионы заполняют вакансии Pb^{2+} , стабилизируя кристаллическую решетку, что стало ярким примером пассивации дефектов. В том же году было установлено, что пассивация с использованием кислот Льюиса (например, TiCl_4) и оснований Льюиса (пиридин) также эффективна.

С 2015 года начали активно применяться различные методы пассивации, и исследования сосредоточились на двух ключевых направлениях: органических и неорганических пассиваторах. В 2015 году группа Сока (Южная Корея) продемонстрировала, что добавление CsBr и RbCl улучшает стабильность и эффективность перовскитов (более 20%). Эти ионы концентрировались на границах зерен, пассивируя дефекты и улучшая электронную проводимость. В 2016 году группа Гретцеля использовала в качестве пассиватора фенилэтиламмоний йодид (PEAI), который связывается с вакансиями Pb^{2+} на поверхности перовскита, снижая рекомбинацию зарядов и повышая эффективность до 22%.

